

shıǵarmalarda epizodlıq obrazlar kóp ushıraspaydı, diqqat kóbinese bas qaharmanǵa qaratılǵan, barlıq waqıyalar tek teńiz ańshılarınıń átirapında bolıp ótedi.

Sonıń menen birge bul shıǵarmalarda syujetlerdiń óz ara uqsaslıqların kóriwge boladı. Mısalı, shıǵarmalardaǵı qaharmanlar teńiz saparında shıyqı balıqtıń góshlerin jeydi, teńizde boranda tolqınlar menen alısadı, hámme qaharmanlardıń sabırı sınaladı, biraq sonda da shıǵarmalardıń sońı balıqshılardıń teńiz saparındaǵı gúreste jeńiske jetiwi arqalı juwmaqlanadı. Mısalı, “Garri hám teńiz” povestinde Santyago haldan tayıp neshshe kúnlep kemeni tartıp ketken úlken balıq penen alısıp, sońında sol balıqtı óltiriwge erisedi. “Teńiz boylap jortqan tarǵıl kópek” povestinde hámme jaqınlarınan ayrılgan Kirisk atasınıń, ákesiniń isenimin aqlap tiri qalıwǵa háreket etedi, sonsha kúnlik ashlıqtan soń, qıynshılıqtan soń qurǵalıqqa jetip keledi. “Balıqshı hám ulı” shıǵarmasında Mustapa óz ulı Teńizden ayrılgan bolsa shıǵarma sońında teńiz oǵan jáne ul sıılaydı. “Balıqshı jigiti” gúrrinde teńizde kemeni qulatatuǵın dawıl bolǵanda Aymurat kemeni hám óz joldasların aman alıp shıǵıwǵa miyasar boladı. Hámme shıǵarmanıń sońı balıqshılardıń úmitiniń jaqsı nátiyjege alıp kelgenligin kóriwge boladı.

Sonday-aq, hárbir avtor óz dóretpesin kórkem psixologizm kompozicion tiykar dárejesine kótergen. Bul shıǵarmalardaǵı kórkem psixologizm de bir-birine jaqın bolıp keledi. Mısalı, olardaǵı qaharmanlardı birlestirip turǵan ortaǵ sezim bul – teńizge bolǵan muhabbatı, hár qaharman teńizdi ózlerinshe jaqsı kóredi, teńiz benen sóylesedi, dartin aytadı, oylasadı, ishki debdiwlerin bildiredi. Olar teńizdi jansız suw sıpatında emes ómiriniń bir bólshegi kerek bolsa bir pútini dep qaraydı. Olar ushın teńizsiz jasaw múshkil, olar óziniń barlıǵın usı teńizge arnaǵan, ómirin teńizge baylaǵan, olar balıq tutıw arqalı,

teńizde júziw arqalı baxıtlı adamlar. Bul sezimlerde hár jazıwshı ózinshe bólek sheberlik penen súwretlep beredi. Teńiz ańshıları qanday jaǵday bolsa da teńizdi taslap ketpeydi, erteńgi künge degen úmitin úzbeydi. Mısalı, “Garri hám teńiz” povestinde Santyago 84 kún dawamında heshqanday balıq uslay almasa da, onı átirapındaǵılar áwmetsiz dep esaplasa da, boyınan kúshi qaytqan bolsa da ol teńizdi taslap ketpeydi, óz kásibinen keship ketpeydi. Jáne úmit artıp teńizge saparǵa shıǵıp ómiri dawamındaǵı eń úlken balıqtı awlawǵa miyasar boladı. “Teńiz boylap jortqan tarǵıl kópek” povestinde bolsa 11 jaslı Kirisk óziniń jaqınları kóz aldında ólip ketse de, shólden bar dimarın joytqan bolsa da, kemedegi eskeklerge kúshi jetpese de ol úmitlenip eń sońǵı kúshin qurǵalıqqa qarap júziwge jumsaydı. “Balıqshı hám ulı” shıǵarmasında balıqshı Mustapa óziniń ulınan teńizde ayırılıp qalǵan bolsa da teńizdi taslamaydı, jaqsı kúnlerge úmit etedi. Solay etip teńiz onıń balası Teńizdi alıp qoyǵan bolsa jáne orına Teńiz atlı ul sıılaydı. “Balıqshı jigiti” gúrrinde bolsa balıqshı Aymurat teńizdi jaqsı kóriwi sonshelli qasındaǵı joldaslarınan ana teńizi haqqında jábirlep sóylegenin qálemeydi. Teńizge bolǵan saparında qanday awır jaǵdayǵa tússe de aman shıǵıwına isenedi, úmit etedi. Joldasları isenimsizlik artıp teńizden qorqqan waqıtlarında onı taslap ketpeydi. Shıǵarmalarda avtorlar insan hám tábiyat ortasındaǵı baylanıstı, adamzattıń hámıyshe gúresiwshenligin súwretleydi.

Bul shıǵarmalar ingliz, türk, nivx hám qaraqalpaq xalıqları haqqında jazılǵan bolsa, hár jazıwshı óz shıǵarmasında xalqınıń, milletiniń ózine tán ózgesheligin kórkem túrde súwretlegen. Bul shıǵarmalardı oqıy otırıp ańshılıq tek kún kóris ushın ǵana emes, ruwxıy dem alıw jáne er azamatlardıń eplilik qásiyetin raslap otıratuǵın sheberlik ekenligin kóriwge boladı.

Adebiyatlar

1. Айжанов Ө. Балықшы жғит. –Нөкис: 1955. “Қарақалпақ мәмлекетлик баспасы”. 69-б.
2. Курамбоев К. Адабий алоқалар- миллий адабиётлар таррақитининг қонуниятларидан бири. http://uzadab.ndpi.uz/adabiy_aloqalar.html
3. Aytmatov Ch. Sohil bo'ylab chopayotgan olapar. –Toshkent: 2020. “Ilm-ziyo-zakovat”. 96-b.
4. Ernest Xeminguey. Chol va dengiz. -Toshkent: 2019 “Yangi nashr”. 96-b.
5. Xallieva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. -Toshkent: 2020. “Akademnashr”, 158-b.
6. Zulfu Livaneli. Ba liqchi va o'g'li. –Toshkent: 2023“Zukko kitobxon”, 144-b.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sohil_voqalab_chopayotgan_olapar
8. https://www.kitapyurdu.com/index.php?route=product/product/reviewAll&product_id=582371

РЕЗЮМЕ. Mazkur maqolada qoraqalpaq va boshqa xalqlar adabiyotida dengiz ovchilari haqida yozilgan asarlar tahlil qilinadi. Asarlarning mavzusi, g'oyasi, kompozitsiyasi, syujeti, obrazlarning berilishi va badiiy psixologizmi ilmiy jihatdan qiyoslandi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются произведения, написанные о морских охотниках в литературе Каракалпакии и других народов. Научно сопоставлялись тема, идея, композиция, сюжет, подача образов и художественная психология произведений.

SUMMARY. This article analyzes works written about sea hunters in the literature of Karakalpak and other nations. The theme, idea, composition, plot, presentation of images and artistic psychology of the works were scientifically compared.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI QORAQALPOQCHA TARJIMASI

Z.G.Azilova – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: doston, she'riy ertak, ibora, tarjima, badiiy detal, qofiya, she'riy san'at.

Ключевые слова: эпос, поэтическая сказка, идиома, перевод, художественная деталь, рифма, поэтическое искусство.

Key words: epic, a fairy tale, expression, translation, artistic detail, poem, rhyme, poetic art.

Badiiy tarjima va adabiy aloqalar doimo adabiyotshunoslik ilmi diqqat markazida boʻlib kelayotgan dolzarb muammo hisoblanadi. Zero, badiiy tarjima ijodkorga adabiy mavzu, g'oya va uning ifodasi, shuningdek, ijodiy uslub va badiiy mahorati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tajriba nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiyotida ham o'zining ilmiy-nazariy asosiga ega. Shu ma'noda, o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari taraqqiyotida badiiy tarjimaning rolini o'rganish ilmiy ehtiyoj sanaladi. Bu borada, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining qoraqalpoq tiliga tarjimasini maxsus tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz uchun zarur ilmiy-nazariy hamda amaliy muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Bugungacha Navoiy asarlaridan bir qator namunalari o'zbekchadan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. Ular orasida „Xamsa“ dostonlari tarjimasini alohida ahamiyat kasb

etadi. Ta'kidlash kerakki, ishqiy dostonlar orasida eng mashhuri, ayni paytda eng dardlisi bo'lgan „Layli va Majnun“ dostonidan parchalar qoraqalpoq tiliga D.Aytmatov tomonidan tarjima qilinib, „Alisher Navoiy saylandilari“ kitobiga kiritilgan. Doston tarjimasini she'riy ertakka o'xshab ketgan holda asosiy qism, ya'ni X bobdan boshlanadi. Mazkur tarjimada muallif ancha aniq, ixcham va ravon ifodalarga erishgan holda iboralardan mohirona foydalangan. Xususan, tarjimada Qaysning otasi ta'rifida shunday ibora keltiriladi:

Qayir saqawatli, bay edi.

Tórt tuligi onıń say edi [3:110].

Baytda qo'llanilgan: „Tórt tuligi onıń say bolıw“ iborasi „Kemissiz, hámme nársesi jetkilikli, jetisken bolıw“ [6:145]. degan ma'noni bildiradi. Asliyatda ham, „Qaysning otasi qo'l ostida necha-necha qabilalar bor, ot, tuya, qo'y-qo'ziları son-sanoqsız edi“ degan ta'riflar

keltiriladi. Ko‘rinadiki, tarjimada bayt mazmuni asliyat bilan to‘liq muvofiq keladi. Bundan tashqari, doston tarjimasida quyidagi iboralar uchraydi: „kewli toq“, „bawırı pútın“, „baxtı qara“, „adam bolmağı“, „juzinde qan joq“, „táğdiyrdın jazğanı“, „sır aldırıp qoyadı“, „ant etti“, „qaray almas jurttın betine“, „perzentinen ayayma janın“, „ózin uslap bala tura almas“, „sóytip bolğanlıgın shermende“, „solar ushın onıń jani ashır“, „jáne joyıttı ol aqıl-esin“, „shashın juladı“, „qaq jarıldı sóytip juregi“ va h.k.

Tarjimada Navoiy qo‘llagan o‘xshatishlar, qahramonlarga berilgan ta‘rif-tavsiflar, badiiy detallar tushib qolgan. Xususan, X bobdagi 5-6-bayt tarjimada berilmagan:

Osmoqdin aning qozoni tushmay,
Tun-kun o‘ti o‘chgali yovushmay,
Kim bodiya ichra yo‘l qilib gum,
Bu o‘t anga tiyra oqshom anjum [3:41].

Baytdan: „Osig‘liq qozoni o‘choqdan tushmas, tun-kun gulxanida o‘ti pasaymas edi. Sahroda yo‘lini yo‘qotganlarga bu o‘t qorong‘u kechadagi yorug‘ yulduz bo‘lib ko‘rinardi“ [2:262] degan mazmun anglashiladi. Unda shoir Qaysning otasining saxovatpeshaligini o‘quvchi tasavvurida mohirona gavdalanitrgan holda „qozon“, „gulxan“ detallarini qo‘llaydi. Boshqa bir o‘rinda Navoiy Bani Omir qabilasi sardori farzandsizligini ta‘riflashda umr daraxti qulay deb qolganda, yonida go‘zalligi sanaybarga o‘xshagan yosh mevali nihol bo‘lsa edi deb o‘xshatish keltiradi:

Naxli bo‘lg‘ay yonida navbar,
Ra‘nolig‘i o‘ylakim sanaybar [3:41].

Tarjimada:
Bir ármani ol paqırğa tek

Narttan shıqqan talshıbıq kerek [4:111].

„Nart“ so‘zining ma‘nosi lug‘atda „Nart at. Tigilgen, kesilgen jas nálshe hám gelleklengen terektiń tubinen shıqqan shıbıgı, talı“ [1:341] sifatida izohlanadi. Ko‘rinadiki, „Narttan shıqqan talshıbıq“ ifodasi asliyatdagi bayt mazmunini mos kelgan. Shuningdek, tarjimada ayrim tasvirlarda farqli jihatlar ham uchraydi: Asliyatda Qays to‘rt yarim yashar bo‘lganda otasi uni o‘qishga bermoqchi bo‘lishi tarjimada besh yoshga to‘lganda deb berilgan:

Adam yeter oni alpeshlep.
Házir mine ol shıqtı beske [4:113].

Qaysga ustozni boshqa, ya‘ni Laylining Hay qabilasidan topishadi. U qabilasidan boshqa joyga borib ta‘lim bermaganligi uchun Qaysni Hay qabilasiga o‘qishga yuborishadi. Tarjimada esa „sol jerde“ deb berilgan:

...Sol jerde bir molla bar edi.
Pazıyletler onda bar edi [4:113].

Ma‘lumki, dostonida Qays maktabga kelgan paytda Layli kasalga chalingani sababli maktabga kelmayotgan bo‘ladi. Tarjimada esa Layli Qays bilan uchrashgandan so‘ng kasal bo‘lib qolgani aks etadi:

„Qáste boldı – deydi – Láylijan.“
Hám jıynaldı tuwǵan-tuwısqan [4:116].

Asliyatda Layli va Majnun uchrashgan paytda kuchli bir oh chekadilar, u o‘tdan jahon yorishib, xirmonlariga shu‘la tushgandek bo‘lib, xirmoni yonib kul bo‘lgandan keyin behush bo‘lib yiqiladilar. Bu epizod ham tarjimada boshqacha tasvirlangan:

Qays Láylijanı qushaqlap.
Birim-birim suyer juzinen [4:132].

Asliyat tilida Laylining izidan kuzatib chiqqan doyasi bularning ahvoliga zor yig‘lab, birov bilib qolmasin deb, „keksa osmon quyoshni orqalagandek“ Laylini uyiga olib keladi va Qaysni qabiladan uzoqroqqa eltib qo‘yadi. Tarjimada esa kampir oshiqlik‘ing elga oshkora bo‘lib masxara bo‘lib qolmang, xalqning zaharli tili umringiz bahoriga og‘u solmasin, Qaysga uyingga qayt deb, Laylini uyiga olib qaytadi, Qays esa qum ustida qoladi:

Al Láylını qolınan suyrep
Alıp qayttı ol kempir uyge.
Qays qumnıń ustinde jatıp
Qaldı. Hámde ketti tań atıp... [4:133].

Ta‘kidlash joizki, qofiya she‘rda ohangdoshlikni ta‘minlovchi muhim omillardan biri. Shu bois she‘riy nutq qofiyyaga asoslanadi. Tarjimaning ko‘p o‘rinlarida qofiylanmagan misralar uchraydi. Bundan tashqari, tarjimada e‘tiborimizni tortgan jihatlardan biri tinish belgilarining qo‘llanilishidir. Asliyatda nuqta faqat misra oxirida qo‘yilgan. Tarjimada esa misra o‘rtasida ham nuqta qo‘yish hollari ko‘p uchraydi. Bizga ma‘lumki, nuqta ohang va fikr tugalligini bildiradi va gapning oxirida qo‘yiladi. Vaholanki, masnaviyda yozilgan asarlarda baytning oxirida nuqta qo‘yiladi. Misra o‘rtasida qo‘yilishi esa misrani bo‘lib o‘qilishini anglatadi:

Sezbes onı biraq miyriman
Ata-ana. Sezbes onı jan [4:112].

Bu esa bayt ohangiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, ya‘ni ohangdoshlik buziladi. Bayt asliyatdagidek jaranglamaydi.

„Layli va Majnun“ dostoni qo‘llanilgan she‘riy san‘atlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, dostonning ko‘p o‘rinlarida ruju‘ san‘atini kuzatamiz. „Ruju‘ – arabcha „qaytish“ ma‘nosini bildirib, she‘riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalangan fikri, qo‘llagan badiiy tasviriy vositasidan qaytgandek bo‘lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she‘riy san‘atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to‘ldirish usulidir. Mumtoz she‘riyatimizda ruju‘ usuli ayniqsa tashbih qo‘llangan misralarda ko‘proq uchraydi“ [5:47]. „Layli va Majnun“ dostonida XXI bobning quyidagi baytida ruju‘ san‘ati qo‘llanilgan:

Har yon bo‘ri posbon itidek,
Yo‘q, yo‘q, ne dedim, shubon itidek. [3:111].

Bayt birinchi misrasida „har tomonda qo‘riqchi itidek bo‘ri“ tashbihi qo‘llanilgan bo‘lib, ikkinchi misrada shoir undan chekingan holda tashbeh belgisini yanada kuchaytiradi. „Yo‘q-yo‘q, yanglishdim, cho‘pon itidek bo‘rilar kezar“ deya bayt mazmun-mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Tarjimada esa mazkur bayt berilmaydi.

Navoiy quyidagi baytda avval qo‘llagan ifodadan chekinib, yangi tashbih qo‘llaydi. Keyin undan ham kuchliroq ifoda yaratgan holda Layli ta‘riflaydi:

Naxli-yu ne naxl, sarvi ozod
Sarvi-yu, ne sarv, rashki shamshod [3:46].

Baytda avvaliga Laylini niholga qiyoslaydi, keyin undan qaytib „sarv“ga o‘xshatadi, so‘ng bu bilan cheklanmasdan, oddiygina emas go‘yo „shamshodning rashki keladigan sarv“ ekanligini tasvirlaydi. Tarjimada shu mazmunga o‘xshash bayt bor, lekin unda ruju‘ san‘ati saqlanmaydi:

Ol sárvinıń boylarınday boy
Bolǵan emes. Onday gáptı qoy! [4:114].

„Layli va Majnun“ dostonida kinoya san‘atidan ham mohirlik bilan foydalanilgan. „Kinoya “bir fikrni yasharin ifoda etmoq“ ma‘nosidagi so‘z bo‘lib, bayon ilmda uni ham haqiqat, ham majoz ma‘nosi anglashiladigan so‘z“ [5:59]dir. Dostonida XIII bobda Qaysning Layli bilan bog‘da ko‘rishib, ayriliq azobida qiynalayotgani, tong otishi tasvirida kinoya san‘ati qo‘llanilgan:

Ko‘k gulshani gullari to‘kildi
Gullarki to‘kildi, g‘uncha kuldi [3:65].

Baytdagi „gullar to‘kildi“ so‘zlari o‘z ma‘nosida „bog‘da gullarning to‘kilishi“ni ifodalaydi. Ushbu baytda „Ko‘k gulshani gullari to‘kildi“ iborasi „Osmondagi yulduzlar yo‘qoldi“ ma‘nosini bildiradi. Tarjimada mazkur baytni ham uchratmaymiz.

Dostonning XI bobida keltirilgan quyidagi baytda tardu aks san‘ati qo‘llanilgan:

Husn ichra ayog‘idin boshi xo‘b,
Boshdin ayog‘iga tegru mahbub, [3:52].

Tardu aks san‘atiga asos bo‘lgan ayog‘idin boshi – Boshdin ayog‘i so‘zlari turlicha o‘zgartirilib takrorlanib, tardu aks san‘atining ikkinchi turi – „aksi noqis“ (nuqsonli aks) turiga misol bo‘ladi. Baytda Layli „go‘zallikda boshdan-oyog‘igacha sevimlidir“ deb tasvirlangan. Tarjimada shunga o‘xshash bayt bor, lekin unda tardu aks san‘ati aks etmagan:

Ruwıxı bay, kewli onıń shad.

Bastan-ayaq tolı muhabbat [4:117].

„She’rda qo’llanıladiğan turli san’at she’riy musiqanı amalga oshırishga yo’naltırılğan bo’ladi. Shu bois har bir she’riy sistema o’z xususiyati, an’anaviy vazni, ritmi hamda ohangiga ega“ [7:197]. Shunday ekan, tarjimon imkon qadar she’riy san’atlarnı tarjimada ham aks ettirsa, asar estetik ta’sirchanlıgı saqlashga muvaffaq bo’ladi.

„Layli va Majnun“ dostonining jami 12 bobi qoraqalpoqchaga tarjima qilingan bo’lib, ulardagi baytlar sonı muayyan o’zgarishlarga uchraydi:

№	Boblar	Asliyatda baytlar sonı	Tarjimada baytlar sonı
1	X	69	44
2	XI	150	83
3	XII	113	72
4	XIII	103	11
5	XIV	92	69
6	XV	64	38
7	XVI	58	67
8	XVIII	81	90
9	XIX	86	28
10	XXXI	123	27
11	XXXIII	126	43
12	XXXV	203	110

Tarjimada mazmun o’zgarish holatlari ham uchraydi. Chunonchi, XVI bob tarjimasi mazmunan asliyatga muvofiq emas. Tarjimada Majnunning otasi Laylining otasiga sovchi yuborganlıgı, Laylining otasi ularni o’ziga teng ko’rmay, rad javobini berganlıgı aks etadi. Asliyatda esa Majnunning otasi Layliga sovchi yubormaydi. Laylining otasi Qaysning Layli ishqida majnun bo’lganlıgini, ma’lomatga qolganlıgini eshitgach, Majnunning otasiga elchi yuborib, o’g’lini kishanlab qo’yishini buyuradi. Shundan so’ng, Qaysni zanjirlab, bir uygı qamab qo’yishadi.

Asliyatdagi XXXI bobda Laylini Ibn Salomga bermoqchi bo’lib to’y qilishadi. To’y kuni Ibn Salomning xafaqon kasali tutib, hushidan ketib qoladi. Hamma Ibn Salom bilan ovvora bo’lgan paytda, Layli biyobonga chiqib ketadi. Shu tariqa, ikki oshiq bir-biriga yetishadilar.

Tarjimada esa mazmun quyidagicha: Ibn Salom arabi otga minib, Layli eliga yo’l oladi. Qizning el-u xalqi yig’ilib, mehmonlarnı kutib oladi. Laylining otasi yetti kun to’y berdi. Aroq-sharob suvday ichiladi. Nay chertkizib, qo’shiq aytqizib quvonchli kunni boshlaydilar. Layli nikohini mulla qiyadi. Shu joyda tarjimada ruscha so’z ishlatilgan: „Bola bersin *semyan* qutlı“ [4:157]. Holbuki, qoraqalpoq tilida oila ma’nosida „sha’harraq“ so’zi bor.

Dostonda asliyat bilan tarjimada ba’zi o’rinlardagi tasvirlar mohiyatida farqli jihatlar mavjud:

– **asliyatda** Laylining otasi bir necha kun to’y berdi deyilsa, **tarjimada** aniq yetti kun to’y qilganlıgı aytiladi;

– **asliyatda** Ibn Salomning ko’p may ichganlıgı xafaqon kasali bo’lganlıgı sababli hushidan ketib qoladi, **tarjimada** esa bu haqda aytilmagan;

– **asliyatda** Ibn Salom Laylini uyiga olib qaytmaydi, Laylining qabilasida ekanlıgida hushidan ketib qoladi, **tarjimada** esa uyiga olib qaytdi va yo’lda Layli qochib keldi mazmuni aks etgan;

– **asliyatda** Layli va Majnun visol tasviri beriladi, **tarjimada** esa Layli va Majnun umuman uchrashmaydilar, bob Layli haqida elda yamon gaplar tarqalishi va unga muallif munosabati bilan yakunlanadi. XV bobda shamol Qaysning butun badanini boshdan-oyoq qumga ko’mib yuboradi. Tarjimada esa bu joylar yo’q, faqat „Qaysni qumning ustida yotar edi“ deya tasvirlanadi:

Qayis jatır ustinde qumniń.

Bul ne degen, quday-aw, sumlıq!

Ta’kidlash kerakki. „Layli va Majnun“ dostoni aruzning hazaii musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida yozilgan bo’lib, tarjimada vazn saqlanmagan. Qolaversa, doston ayrim qisqartirilishlar bilan tarjima qilingan. Ba’zi o’rinlarda tarjimada mazmun o’zgargan. Bir qator voqea-hodisalar, obrazlar tarjimada berilmagan. To’g’ri, bu holat tarjima jarayonida asliyatdagi vazn va she’riy san’talar, shuningdek, qahramon ruhiy holatlarini qayta yaratishdagi murakkabliklar bilan bog’liq kechgan bo’lishi mumkin. Shu ma’noda, bunday o’rinlarda dostonning qoraqalpoq tilidagi tabdilini yaratish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Adabiyotlar

1. Каракалпак тилинің тусиндирме сөзлиги. III том. – Нөкис: «Қаракалпақстан», 1998. 367-б.
2. Навоий. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 264-б.
3. Навоий. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: «Фан», 1992. 258-б.
4. Наўайи Ө. Сайландылары. – Нөкис: «Қаракалпақстан», 1991. 171-б.
5. Хожиахмедов А. Мумтоз бадийат малоҳати. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 1999. 238-б.
6. Эшбаев Ж. Каракалпак тилининг қисқаша фразеологиялық сўзлиги. – Нөкис: «Қаракалпақстан», 1985. 158-б.
7. G’afurov I., Mo’minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Тошкент: «Tafakkur bo’stoni», 2012. 216-б.

REZYUME. Mazkur maqolada A.Navoiy „Layli va Majnun“ dostonining qoraqalpoq tiliga tarjimasi asliyat bilan qiyosiy holda tahlil qilingan. Shuningdek, asliyat va tarjimadagi baytlar sonı va ularning mazmunıy muvofıqlıgı, she’riy san’atlar berilishi masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье перевод эпоса А.Навои „Лейли и Меджнун“ на каракалпакский язык был проанализирован в сравнении с оригиналом. Освещаются также вопросы о количестве стихов в оригинале и переводе и их содержательной совместности в поэтическом искусстве.

SUMMARY. In this article the translation of the A.Navoi epic „Layli and Majnun“ into Karakalpak was analyzed in comparison with the original text. The number of verses are discussed in the original and translated versions, as well as their thematic consistency, and poetic artistry.

«УЛЛЫ ЖЫРАҰДЫҢ СЫРЛЫ ҚУБЫЛЫСЛАРЫ»

(Қаражан улы Нурабулла жыраў хақында)

С.Аяпов – еркин ізлениуши

Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Таянч сўзлар: санъат, қўбиз, жиров, жировчилик мактаби.

Ключевые слова: искусство, кобуз, жиров, жиров школа.

Key words: art, kobiz, zhiraw/bard, fat school.

Қаракалпак жыраўшылық өнеринде жыллар даўа-мында өзиниң белгили дәрежеде орны бар, уллы устаз жыраў, өз заманында каракалпактың маңлай алды жыраўы болған Қаражан улы Нурабулла жыраўдың өмири хэм дөретиўшилиги хақында 1960-жылдан баслап

илимпазларымыз тәрәпинен баспа сөзде мағлыўматлар бериле баслады.

Әлбетте, бул мағлыўматлардың көпшилиги жыраўды көрген хэм еситкен адамлардан жазып алынған. Филология илимлериниң докторы, профессор